



УДК 597.2

SHAHRIXONSOY IXTIOFAUNASI BO'YICHA DASTLABKI MA'LUMOTLAR

Mirzaxalilov Mirabbos Mirzakarim o'g'li

Farg'ona davlat universiteti "Zoologiya va umumiy biologiya" kafedrası
o'qituvchisi, mirzahalilovmirabbos@gmail.com

Nazarov Muxammadrasul Sharopovich

Farg'ona davlat universiteti "Zoologiya va umumiy biologiya" kafedrası dotsenti,
b.f.n. m_nazarov@mail.ru

Umarov Fayoziddin Abdulfatto o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti assistenti.
fayoziddinumarov073@gmail.com

Mukimov Muxammadkarim Adxamovich

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti,
muqimovmuhammadkarim7@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Farg'ona vodiysidan oqib o'tuvchi Shahrixonsoy magistral kanalining ixtiofauna tarkibi bo'yicha dastlabki ixtiologik tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijasida baliq turlarining taksonomiyasi, bir qator biologik ko'rsatkichlari, tarqalishi, mahalliy yoki invaziv turligi, endemiklik darajasi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar. *Invaziv tur, ixtiofauna, mahalliy tur, endemik tur.*

ПЕРВИЧНЫЕ СВЕДЕНИЯ ПО ИХТИОФАУНЫ РЕКА ШАХРИХАНСЯ

Аннотация. *В статье приведено первичные данные по составу ихтиофауны Шахрихансая Ферганской долины. Определено таксономия изученных видов рыб, некоторые биологические показатели, распространение, местный или инвазивный вид и эндемичность их.*


Ключевые слова. *Инвазивный вид, ихтиофауна, местный вид, эндемический вид.*

PRELIMINARY INFORMATION ON THE ICHTIOFAUNA OF THE SHAHRIKHONSOY RIVER

Abstract. *The article presents primary data on the composition of the ichthyofauna of Shakhrikhansay in the Ferghana Valley. The taxonomy of the studied fish species, some biological indicators, distribution, local or invasive species and their endemicity are determined.*

Key words. *Invasive species, ichthyofauna, local species, endemic species..*

KIRISH





Farg'ona vodiysidan oqib o'tuvchi Sirdaryo Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Norin daryosi o'z suvlarini Markaziy Tyanshan tog'liklarining Qirg'iziston hududidan, Qoradaryo esa Farg'ona va Oloy tog'laridan oladi hamda asosan qor va muzliklardan to'yinadi. Shahrixonsoy magistral kanali 1887 yil qurilgan bo'lib uzunligi 120 km. Magistral kanal Andijon (Kampirravot) suv omboridan boshlanadi va dastlabki 20 km uzunlikda Qirg'izistonning O'sh hamda O'zbekistonning Andijon viloyatlari chegarasidan oqib o'tadi. Shahrixonsoy Buloqboshi tumaniga qarashli Kulla qishlog'i oldida Aravonsoy bilan qo'shiladi va yanada yiriklashadi. Aravonsoyning asosiy qismi esa Qirg'izistonning O'sh viloyati hududidan oqib o'tib Andijon viloyati hududiga 5-6 km kimgach Shahrixonsoyga qo'shiladi. Kanal Farg'ona vodiysini sharqdan g'arbgga qarab kesib o'tadi hamda o'z yo'lida Janubiy Farg'ona kanalini suv bilan ta'minlaydi va nihoyat Shahrixon shahrida Katta Farg'ona kanaliga qo'shib o'zining nihoyasiga yetadi. Shahrixonsoyning manbai bo'lmish Andijon (Kampirravot) suv ombori 1979-1980 yillarda Qoradaryo havzasida qurilib foydalanishga topshirilgan. Ushbu sun'iy suv havzasi O'zbekiston tomonidan Andijon viloyati Xonobod shahri yuqorisida, Qirg'iziston tomonidan O'zgan tumani chegarasida joylashgan. Suv omborining maydoni 8000 gektar, hajmi 1900 mln m³, foydali hajmi 1750 mln m³, o'rtacha chuqurligi 45 m.

Sirdaryoning yuqori oqimida yashovchi baliqlar faunasi haqidagi dastlabki tadqiqotlar 1868-1870 yillarda N. A. Seversov va A.A. Kushakevichlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlar L. S. Berg (1948-1949); G. V. Nikolskiy (1933, 1940); F. A. Turdakov (1952, 1963); V. A. Maksunov (1968); G. K. Kamilov (1964, 1965); A. Boltaboyev (1975); M. Muxamediyev (1985) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

L. S. Berg Sirdaryo havzasida 47 baliq turini aniqlagan bo'lsa, G. V. Nikolskiy – 41 ta, F. A. Turdakov – 50 ta, V. A. Maksunov – 35 ta, G. K. Kamilov esa Sirdaryoning o'rta va yuqori oqimida 54 ta baliq turini aniqlagan [1]. M. Muxamediyev [4] Andijon (Kampirravot) suv omborida 21 ta baliq turi xususan qora baliq, zog'ora baliq, kam tangachali osman, qilichbaliq, Turkiston mo'ylovdori va boshqalar uchrashini ta'kidlab o'tgan. Tadqiqotchilar Farg'ona vodiysining asosan Sirdaryo, Qoradaryo va Norin kabi yirik daryolarning ixtiofaunasini o'rganishgan. Shahrixonsoyning ixtiofauna tarkibi bo'yicha esa tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shundan kelib chiqib ushbu suv havzasining ixtiofauna tarkibi va ularning morfo-ekologik xususiyatlarini o'rganish dolzarblik kasb etadi deb hisoblaymiz.





MATERIAL VA USLUBIYOT

Tadqiqot uchun materiallar Shahrixonsoy magistral kanalining Aravonsoy bilan qo'shilish joyidan hamda kanalning Marhamat va Asaka tumanlari chegarasi hududidan yig'ildi. Baliqlarni o'lchash ishlari umumixtiologik metodlar yordamida amalga oshirildi [3]. Baliqlar taksonomiyasini Mipabdullayev I.M., Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. larning "O'zbekiston baliqlari xilma-xilligi" [2], M.A.Yuldashov, T.V.Salixov, B.G.Kamilovlarning "O'zbekiston baliqlari" [6] aniqlagichlaridan foydalanib aniqladik.


TADQIQOT NATIJALARI

Respublikamiz xususan Farg'ona vodiysi suv havzalarining hozirgi ixtiofauna tarkibi mahalliy baliqlar, rejali iqlimlashtirilgan hamda tasodifan kirib kelgan turlar hisobiga shakllandi. Masalan hududlarda akvakulturani rivojlantirish maqsadida hovuz xo'jaliklarini yangi baliq obyektlari bilan ta'minlash va shu orqali baliq yetishtirishni ko'paytirish maqsadida boshqa hududlardan bir qator tez o'suvchi baliq turlari suv havzalarimizga iqlimlashtirilgan. Ular bilan birga bir necha tasodifiy turlar ham kirib keldiki, ularning ko'pchiligi keyinchalik suv havzalarimizga moslashib ketishdi [5]. Ular invaziv turlar bo'lib ko'pchiligi Amur daryosi havzasidan kirib kelgan Xitoy faunistik kompleksi baliqlariga kiradi.

1-жадвал.

Shahrixonsoydan tutilgan baliq turlarining taksonomiyasi va ayrim biologik ko'rsatkichlari.

Taksonomiyasi			Uzunligi, mm			Og'irligi, g			soni
	Turi	Oilasi	O'rtacha	Maksimal	Minimal	O'rtacha	Maksimal	Minimal	
1.	Tovon baliq (Carassius gibelio)	Karpsimonlar (CYPRINIDAE)	38,6	57	30,8	1,85	5,52	0,72	12
2.	Amur chebakchasi (Pseudorasbora parva)	Karpsimonlar (CYPRINIDAE)	43,8	58,2	37,1	1,65	5,3	0,87	10
3.	Turkiston qum balig'i (Gobio lepidolaemus)	Karpsimonlar (CYPRINIDAE)	37,5	57	24	1,1	3,33	0,28	9
4.	Qirraqorin (Hemiculter leucisculus)	Karpsimonlar (CYPRINIDAE)	46,0	48,9	1,5	4,95	1,47	0,7	5





5.	Ko'zli taxir baliq (Rhodeus ocellatus ocellatus)	Karpsimonlar (CYPRINIDAE)	46	50	42	3,1	3,85	2,33	2
6.	Qora baliq (Schizothorax intermedius)	Karpsimonlar (CYPRINIDAE)	28,7	34,8	25,9	0,34	0,6	0,2	
7.	Gambuziya (Gambusia affinis)	Petsiliyalar (POECILIIDAE)	34,3	39	29,1	0,82	1,28	0,41	10
8.	Mikroperkops (Microperops cinctus)	Odontobutislar (ODONTOBUTIDAE)	40,3	52,5	33	1,56	3,2	0,63	11

Shahrixonsoy ixtiofaunasini o'rganish bo'yicha olib borilgan dastlabki tadqiqotlar natijasida tutilgan baliqlar uchta oila va sakkizta turga mansubligi aniqlandi. Shulardan oltita tur karpsimonlar oilasi vakillari, bittadan tur petsiliyalar hamda odontobutis oilalari vakillari sanaladi. Gambuziya respublikamiz suv havzalariga o'tgan asrning 30-yillarida rejali tarzda iqlimlashtirilgan tur sanaladi. Tovon baliq, qora baliq va Turkiston qum balig'i mahalliy baliq turlariga mansub bo'lsa, Amur chebakchasi, qirraqorin, mikroperkops va ko'zli taxirbaliq Amur daryosi havzasidan tasodifan kirib kelgan Xitoy faunistik kompleksi baliqlariga mansub invaziv turlar hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan baliq turlarining deyarli barchasi mayda o'lchamli bo'lib, ov ahamiyatiga ega bo'lmagan hashaki baliqlar hisoblanadi va asosan havaskor baliq ovlovchilarning ov obyekti sanaladi. Namunalar ichida Turkiston qum balig'i Orol dengizi havzasi endemigi sanaladi.

Yuqoridagi ko'rib chiqilgan dastlabki ixtiologik tadqiqotlardan xulosa qilib aytish mumkinki Shahrixonsoy magistral kanalining ixtiofauna tarkibi mahalliy, endemik, iqlimlashtirilgan hamda tasodifan kirib kelgan invaziv turlardan iborat bo'lib, mahalliy faunaning bioxilma-xilligini aniqlash va ularni o'rganish nuqtai-nazaridan katta ahamiyatga ega hisoblanadi.





REFERENCES:

1. Камилов Г.К. Рыбы водохранилищ Узбекистана. Ташкент: Изд-во “Фан”, 1973.
2. Мирабдуллаев И.М., Кузметов А.Р., Курбонов А.Р. Ўзбекистон балиқлари хилма-хиллиги. Тошкент: “Classic” нашриёти, 2020.
3. Правдин И.Ф. Руководство по изучению рыб. Москва: Изд-во «Пищевая промышленность», 1966.
4. Мухамедиев М.А. Рыбы Каркидонского водохранилища. Автореферат дис. на соискание кан. биол. наук. Л. 1985.
5. Юлдашов М.А., Камилов Б.Г. Результаты интродукций чужеродных видов рыб в водоемы Узбекистана//Научные труды Дальрыбвтуза. 2018. № 1 (т. 44). С.40-48.
6. Юлдашов М.А., Салихов Т.В., Камилов Б.Г. Ўзбекистон балиқлари. Тошкент: “GOLD-PRINT NASHR” нашриёти, 2018.
7. Mukimov M. K. A., Mirzakhililov M. M., Nazarov M. S. Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 5. – С. 140-147.
8. Муқимов М. К. А. и др. СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ АМУРСКОГО ЧЕБАЧКА (PSEUDORASBORA PARVA) КАК ИНВАЗИВНОГО ВИДА //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D2. – С. 50-54.
9. Муқимов М. К. А., Мирзахалилов М. М., Назаров М. Ш. Качественный и количественный анализ некультивируемых рыб в выростных прудах рыбхоза «Наманган балык» //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 726-733.
10. Mirzahalilov M. M. et al. Hydrochemical indexes and phytoplankton composition of different types of water bodies in the fergana valley //O ‘zbekiston biologiya jurnali. – 2006. – Т. 36.

